

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HISOBLASH MALAKALARINI
RIVOILANTIRISHNING METODIK ASOSLARI****Sunnatullo Do'stov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
matematika fani o'qituvchisi,

Shahzoda Itolmasova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining
bitiruv kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20676395>

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda matematika fanining o'rni juda muhimdir, chunki matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik yondashuv va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda hisoblash malakalarini shakllantirish, o'quvchilarning boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga asos bo'ladi. Hisoblash malakalarini rivojlantirish, nafaqat matematik bilimlarni shakllantirish, balki bolalarning tafakkurini yanada boyitish, kundalik hayotda ularning amaliy ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bu tezisda boshlang'ich sinflarda hisoblash malakalarini rivojlantirishning ahamiyati, usullari, o'qituvchi roli va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: metodika, didaktik o'yin, kognitiv rivojlanish, son tarkibi, mantiqiy tafakkur

Аннотация: Роль математики в начальном образовании очень важна, поскольку математика развивает у учащихся логическое мышление, аналитический подход и навыки решения задач. Особенно в начальных классах формирование вычислительных навыков является основой для успешного освоения учащимися других предметов. Развитие вычислительных навыков служит не только формированию математических знаний, но и дальнейшему обогащению мышления детей, совершенствованию их практических навыков в повседневной жизни. В данной работе анализируется важность развития вычислительных навыков в начальных классах, методы, роль учителя, а также проблемы, возникающие в этом процессе, и пути их решения.

Ключевые слова: методология, дидактическая игра, познавательное развитие, числовая структура, логическое мышление.

Annotation: The role of mathematics in primary education is very important, because mathematics develops students' logical thinking, analytical approach and problem-solving skills. Especially in primary grades, the formation

of computational skills is the basis for students' successful mastery of other subjects. The development of computational skills serves not only to form mathematical knowledge, but also to further enrich children's thinking, improve their practical skills in everyday life. This thesis analyzes the importance of developing computational skills in primary grades, methods, the role of the teacher, and the problems that arise in this process and ways to solve them.

Keywords: methodology, didactic game, cognitive development, number structure, logical thinking.

Boshlang'ich sinflarda hisoblash malakalarini rivojlantirishning ahamiyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hisoblash malakalarini rivojlantirish, nafaqat matematika fanini o'rganishga asos yaratadi, balki ularning umumiy bilim va ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Hisoblash malakalari rivojlanishi o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy va analitik fikrlashini oshiradi. Bu o'quvchilarga biror muammoni yechishda to'g'ri yondashuvni tanlashda yordam beradi.

Hisoblash malakalarini rivojlantirishning asosiy omillari

Hisoblash malakalarini rivojlantirishda matematikaning asosiy tushunchalari, masalan, raqamlar, amallar (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish), ularning qiymati va matematik formulalar tushunchasi o'rganiladi. Bu malakalar bolalarning nafaqat matematika, balki boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga yordam beradi.

Matematik fikrlashni rivojlantirish

Hisoblash jarayonida bolalar mantiqiy fikrlashni, eslab qolish va tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Matematik savollarni hal qilishda amalga oshirilgan har bir qadam, bolaning fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

II. Hisoblash malakalarini rivojlantirish usullari

Boshlang'ich sinflarda hisoblash malakalarini rivojlantirishda samarali metodlar qo'llanishi kerak. Ushbu usullar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, matematikadan qo'rquvni kamaytiradi va natijada o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

Amaliy mashqlar va kundalik hayot misollaridan foydalanish

O'quvchilarga kundalik hayotdan misollar keltirish, masalan, savdo qilish, vaqtni o'lchash, o'yinlarda hisoblash kabi mashqlar orqali hisoblash malakalarini rivojlantirish mumkin. Bu usul bolalarning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, chunki ular matematikani real hayot bilan bog'lashadi.

Interaktiv o'yinlar va didaktik materiallar



Interaktiv o'yinlar va didaktik materiallar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, matematik o'yinlar orqali bolalar o'ynab o'rganadilar. Bunda masalalarni yechish o'yin shaklida amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarni yanada faol qatnashishga undaydi.

- Grupplarda ishlash

O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, birgalikda masalalarni hal qilishga jalb qilish, ularning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod o'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantiradi va ular bir-birlariga yordam berish orqali yanada chuqurroq tushuncha hosil qiladilar.

- Texnologiyalardan foydalanish

Raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlari yordamida matematik masalalarni hal qilish, o'quvchilarni motivatsiya qilishda va bilimlarni mustahkamlashda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Masalan, interaktiv dasturni qo'llash orqali o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali darslar o'tkazish mumkin.

III. O'qituvchining roli va metodik yondoshuv

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning hisoblash malakalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab individual yondoshuvni tanlash orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishi, o'rgatish jarayonini yanada samarali qilish uchun turli metod va vositalarni qo'llaydi.

- Individual yondashuv

Har bir bola turli darajada o'rganadi va turli tezlikda natijalar ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondoshuvni qo'llash kerak. Bu metod o'quvchining o'rganish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

- O'qituvchining o'rgatish metodikasi

O'qituvchi nafaqat darslarni o'tkazish, balki o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini doimiy ravishda mustahkamlash, qiyinroq masalalarni yechishda yordam berish va ular bilan muloqot qilishga harakat qilishi lozim. O'qituvchining matematikaga bo'lgan munosabati va o'quvchilarga bo'lgan ishonchi, darsning muvaffaqiyatli o'tishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

IV. Hisoblash malakalarini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar



Hisoblash malakalarini rivojlantirishda bir nechta muammolar mavjud. Ularning barchasini bartaraf etish uchun maxsus yondoshuvlar va metodlar talab qilinadi.

- O'quvchilarda matematikaga nisbatan qiziqishning yo'qolishi

Ko'plab boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikaga qiziqmaydilar yoki uni qiyin deb bilishadi. Bunday holatda, o'qituvchilar o'yinlar va turli xil amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarni rag'batlantirishi kerak.

- Nizom va metodikaga mos kelmagan darslar

Ba'zan, darslar yuqori darajada nazariy bo'lib, bolalarga amaliy bilimlar berishdan ko'ra, nazariy masalalar ko'proq beriladi. Bu holatni bartaraf etish uchun darslarni amaliy mashqlar bilan boyitish kerak.

- Resurslarning yetishmasligi

Ba'zi joylarda hisoblash malakalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan texnologik va didaktikresurslar yetishmasligi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar mavjud resurslardan samarali foydalanishlari, imkoniyat boricha yangi texnologiyalarni o'rgatishlari kerak.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda hisoblash malakalarini rivojlantirish, o'quvchilarning matematika fanini o'zlashtirishini ta'minlashda, ularning tafakkurini rivojlantirishda va umumiy ta'lim darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning bilimlarini mustahkamlash uchun interaktiv metodlar, amaliy mashqlar va texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. O'qituvchining yondoshuvi va metodikasi, o'quvchilarni yana-da samarali va qiziqarli tarzda o'rgatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-4708-son 07.05.2020 Qarori.
2. N.Bikbayeva 4-sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi", 2020-y.
3. I.Abdullayev, (2021). Geometriya kursida ko'pburchaklarni o'qitish metodikasi. Academic research in educational sciences, 2(9), 145-148.
4. Jumaev M.E. va boshk. Birinchi sinf matematika daftari. Toshkent, "Turon-Ikbol" 2020 yil., 64 bet





5.Ахунджанов И.М. (2025). Геймификация в образовании: внедрение на уроках начального образования. Образование наука и инновационные идеи в мире, 64(1), 298-302.

6.A.I.Maratovich, (2025). Boshlang'ich ta'lim talabalarini ta'limiy geymifikatsiya elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi, journal of new century innovations,72(1), 144-146.

